



POLAND



POLAND

## “ZULFIYA SHE’RIYATIDA AYOL SIYMOSINING BADIY-ESTETIK TALQINI VA ZAMONAVIY AHAMIYATI”

**Huseno**va Marjona Abdulla qizi

talaba Toshkent davlat tibbiyot universiteti  
(Toshkent, O‘zbekiston)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21221667>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma’naviy kamolotini yuksaltirish dolzarb masalalardan biridir. Zulfiya she’riyati esa ayolning nafaqat oiladagi, balki jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, uning sabr-toqati, mehribonligi, matonati va ma’naviy go‘zalligini badiiy jihatdan yuksak darajada aks ettiradi. Shoira ayolni faqat oilaning tayanchi sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi sifatida ham tasvirlaydi. Shu sababli shoironing ijodini zamonaviy nuqtayi nazardan o‘rganish ilmiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

**Kalit so‘zlar:** Zulfiya, ayol siymosi, badiiy-estetik talqin, she’riyat, o‘zbek adabiyoti, ma’naviyat, vatanparvarlik, sadoqat, milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida ayol shoirlar ijodi alohida o‘rin tutadi. Ular orasida Zulfiya o‘zining sermazmun she‘rlari, yuksak badiiy mahorati hamda insonparvarlik g‘oyalarini chuqur ifodalash bilan ajralib turadi. Shoira o‘z asarlarini inson qalbidagi nozik kechinmalarini, Vatanga muhabbatni, tinchlikni, sadoqatni, mehr-muhabbatni hamda ayolning jamiyat va oiladagi beqiyos o‘rnini yuksak badiiylik bilan tasvirlangan. Shu bois uning ijodi nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham o‘z ilmiy va ma’naviy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ayniqsa, ayollarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yuksaltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada Zulfiya she’riyati muhim ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shoira yaratgan ayol obrazi nafaqat mehribon ona yoki sadoqatli yor timsoli, balki Vatanga sadoqatli, bilimli, ma’rifatli, matonatli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan barkamol shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, unda Zulfiya she’riyatida ayol siymosining badiiy-estetik talqini zamonaviy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi hamda shoironing asarlarida ilgari surilgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalarning bugungi jamiyat va yoshlar tarbiyasidagi o‘rni yoritiladi. Shoira ijodini o‘rganish orqali milliy adabiyotimizning badiiy-estetik xususiyatlarini chuqurroq anglash, ayol siymosining badiiy talqinida o‘ziga xos jihatlarini ochib berish hamda uning tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.

**Zulfiya she'riyatida ayol siymosining badiiy talqini**

Sadoqat gullasin har bir qadamda,  
Mehr nuri porlar ayol ko'zida.  
Hayot go'zalligi butun olamda,  
Aks etar ayolning shirin so'zida.

Zulfiya ayol siymosini yaratishda tabiat obrazlari, ramziy timsollar, poetic tasvir vositalari, sifatlash, tashbeh va jonlashtirish kabi badiiy usullardan mohirona foydalanadi. Natijada ayol obrazi yanada jonli, ta'sirchan va estetik jihatdan mukammal ko'rinish kasb etadi. Shoiraning sodda, ravon va musiqiy ohangga ega tili esa asarlarining badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Shoira yaratgan ayol obrazi, avvalo, mehr-muhabbat, sadoqat, sabr-toqat va fidoyilik kabi yuksak insoniy fazilatlar bilan ajralib turadi. Zulfiya nazarida ayol oilaning tayanchi, farzand tarbiyasining asosiy mas'uli hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shuvchi shaxsdir. Shu sababli uning she'rlarida ayolning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari, orzu-intilishlari va hayotga bo'lgan munosabati samimiy hamda hayotiy tarzda yoritiladi.

Zulfiya she'riyatida ona obrazi alohida o'rin egallaydi. Shoira ona timsolini mehr-oqibat, cheksiz muhabbat va matonat ramzi sifatida gavdalantiradi. Ona nafaqat farzandni voyaga yetkazuvchi inson, balki millatning ma'naviy tayanchi va kelajak avlod tarbiyachisi sifatida talqin etiladi. Shu orqali shoiraning ona siymosiga bo'lgan yuksak hurmati va ehtiromi namoyon bo'ladi.

Shoira asarlarida sadoqatli yor obrazi ham chuqur badiiy mahurat bilan tasvirlangan. Bu obraz orqali muhabbat, vafo, ishonch va insoniy munosabatlarning mustahkamligi ulug'lanadi. Zulfiya uchun chin muhabbat insonni ma'naviy jihatdan boyituvchi, hayot sinovlarini yengishga undovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Shu bois uning she'rlaridagi lirik qahramon samimiy tuyg'ulari, ichki kechinmalari va ruhiy olami bilan o'quvchini o'ziga yaqinlashtiradi.

Zulfiya ijodida zamonaviy ayol obrazi ham muhim o'rin tutadi. Shoira ayolni ilmi, ma'rifatli, mehnatsevar, tashabbuskor va jamiyat taraqqiyotiga daxldor shaxs sifatida tasvirlaydi. Bunday yondashuv ayolning ijtimoiy faolligini e'tirof etish bilan birga, uning intellektual salohiyatini ham yuksak baholashga xizmat qiladi. Shoira nazarida ayolning haqiqiy go'zalligi uning tashqi ko'rinishida emas, balki odobi, ma'naviyati, bilimga intilishi va ezgu fazilatlarda namoyon bo'ladi.

**Shoira she'rlarida ayolning ma'naviy-axloqiy fazilatlari**

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,  
Hayotni kuylayman, chekinar alam,



Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,  
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

Zulfiya she'riyatida mehr-muhabbat insoniy munosabatlarning asosiy mezoni sifatida tasvirlanadi. Shoira ayol qalbining nozik tuyg'ularini, uning yaqinlariga, oilasiga, farzandlariga va Vatanga bo'lgan cheksiz mehrini samimiy va hayotiy obrazlar orqali ifodalaydi. Bu mehr faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki jamiyatda ezgulik va hamjihatlikni qaror toptiruvchi kuch sifatida talqin qilinadi.

Sadoqat va vafo Zulfiya yaratgan ayol obrazining muhim fazilatlardan biridir. Shoira she'rlarida sadoqat insonning ma'naviy pokligi va ruhiy yetukligining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayol oila, muhabbat va Vatanga sodiq inson sifatida tasvirlanadi. Bunday obrazlar orqali muallif insoniy munosabatlarda ishonch, vafodorlik va mas'uliyatning ahamiyatini yuksak baholaydi.

Shoira ayolning sabr-toqati va matonatini ham alohida e'tirof etadi. Hayot siovlari, ayriliq va mashaqqatlar qarshisida ayolning ruhiy bardoshi, irodasi va umidini yo'qotmasligi she'rlarning asosiy g'oyalaridan biridir. Zulfiya nazarida sabr insonni yanada kuchli va barkamol etadigan fazilat bo'lib, u ayolning ichki qudratini namoyon etadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya she'riyati o'zbek adabiyotining bebaho ma'naviy va badiiy merosi hisoblanadi. Shoira o'z asarlarida ayol siymosini yuksak badiiy-estetik mahurat bilan tasvirlab, uning mehr-muhabbati, sadoqati, matonati, vatanparvarligi, insonparvarligi hamda ma'rifatga intilishini ulug'laydi. Zulfiya yaratgan ayol obrazi nafaqat oila va jamiyatning tayanchi, balki millat taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishga munosib hissa qo'shuvchi barkamol shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Zulfiya she'riyati bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Unda ilgari surilgan ezgulik, sadoqat, tinchlik, mehr-oqibat, Vatanga muhabbat va ma'rifatparvarlik g'oyalari yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shoiraning asarlari o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviyat va insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Zulfiya she'riyatida yaratilgan ayol siymosi nafaqat badiiy mukammalligi, balki chuqur tarbiyaviy va ma'naviy mazmuni bilan ham alohida ahamiyatga ega. Shoiraning ijodiy merosini chuqur o'rganish, uning asarlaridagi badiiy-estetik g'oyalarini keng targ'ib etish va yoshlar tarbiyasida samarali qo'llash bugungi kun adabiyotshunosligi hamda ta'lim tizimining muhim vazifalardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.



POLAND



POLAND

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

- 1.Asarlar. 5 jildlik. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985-1988.
- 2.Saylanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.
- 3.Bahor keldi seni so'roqlab. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1970.
- 4.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
- 5.Ijodni anglash baxti. –Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
- 6.O'zbek adabiyoti va san'ati gazetasi hamda ilmiy-adabiy jurnallarda e'lon qilingan Zulfiya ijodiga bag'ishlangan maqolalar.

